



UDK:820(073):894.375(021)

Anvar QOSIMOV,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
E-mail: qosimovanvar43@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD N.Suyarova taqrizi asosida

#### F. KUPER ASARLARIDA HINDULAR TIMSOLI VA O'ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY ZIYOLILAR OBRAZI: QIYOSIY TIPOLOGIK O'XSHASHLIKLAR

Annotsatsiya

Mazkur maqolada jahon adabiyotining taniqli vakili Fenimor Kuper asarlarida hindular timsoli qanday badiiy va falsafiy mazmun kasb etgani hamda o'zbek adabiyotida milliy ziyolilar obrazi qanday shakllangani qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki turli madaniyat va sivilizatsiya – G'arb va Sharq tafakkuri o'rtasidagi ma'naviy mushtaraklik, inson, ozodlik, axloq, ma'rifat va milliy o'zlik tushunchalarining o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lishi ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada qiyosiy-tipologik metod, tarixiy-madaniy yondashuv va falsafiy tahlil usullari qo'llanilgan. Natijada Kuper asarlaridagi hindular timsoli bilan o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Har ikkisi o'z millatining tarixiy ongini tiklash, mustamlaka zulmiga qarshi ma'naviy qarshilik ko'rsatish, inson sha'nini himoya qilish g'oyalari badiiy ifoda etgan.

**Kalit so'zlar:** Fenimor Kuper, hindular timsoli, o'zbek adabiyoti, milliy ziyolilar, jadidchilik, qiyosiy-tipologik tahlil, erkinlik falsafasi, milliy uyg'unish, postkolonial yondashuv.

#### F. THE IMAGE OF INDIA IN KUPER'S WORKS AND THE IMAGE OF NATIONAL INTELLECTUALS IN UZBEK LITERATURE: COMPARATIVE TYPOLOGICAL SIMILARITIES

Annotation

This article provides a comparative-typological analysis of how the image of the Native Americans in the works of the renowned American writer James Fenimore Cooper acquires artistic and philosophical meaning, and how the image of the national intellectuals is formed in Uzbek literature. The study reveals the spiritual commonalities between two different civilizations – Western and Eastern thought, particularly how the concepts of humanity, freedom, morality, enlightenment, and national identity are harmoniously expressed in their respective literary traditions. The research employs comparative-typological, historical-cultural, and philosophical-analytical methods. As a result, similarities and differences between Cooper's representation of Native Americans and the image of national intellectuals in Uzbek literature are identified. Both are portrayed as defenders of their nation's historical consciousness, spiritual resistance against colonial oppression, and human dignity.

**Key words:** James Fenimore Cooper, image of Native Americans, Uzbek literature, national intellectuals, Jadidism, comparative-typological analysis, philosophy of freedom, national awakening, postcolonial approach.

#### F. ОБРАЗ ИНДИЙЦЕВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КУПЕРА И ОБРАЗ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ СХОДСТВА

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ художественного и философского значения образа индейцев в произведениях известного американского писателя Фенимора Купера и формирования образа национальной интеллигенции в узбекской литературе. В исследовании раскрывается духовное родство между двумя различными цивилизациями – Западом и Востоком, а также гармоничное проявление понятий человечности, свободы, морали, просвещения и национальной самобытности в их литературных традициях. В статье применяются сравнительно-типологический, историко-культурный и философско-аналитический методы. В результате выявлены сходства и различия между образом индейцев у Купера и образом национальных интеллигентов в узбекской литературе. Оба типа героев представлены как защитники исторического сознания своего народа, духовного сопротивления колониальному угнетению и человеческого достоинства.

**Ключевые слова:** Фенимор Купер, образ индейцев, узбекская литература, национальная интеллигенция, джадидизм, сравнительно-типологический анализ, философия свободы, национальное возрождение, постколониальный подход.

**Kirish.** Insoniyat tarixida adabiyot nafaqat badiiy hodisa, balki xalqning ma'naviy xotirasi, ijtimoiy o'zgarishlar va falsafiy tafakkurning ifodasi sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa XIX–XX asrlar oralig'i – mustamlakachilikning kengayishi, milliy uyg'unishlar va ma'rifatparvarlik harakatlarining shakllanishi bilan ajralib turadi. Shu jarayonda turli xalqlar adabiyotida o'z milliy o'zligini himoya qiluvchi, insoniy qadriyatlarini saqlab qoluvchi obrazlar paydo bo'lgan. Bu adabiy hodisalar ichida amerikalik yozuvchi Fenimor

Kuperning hindular timsoli hamda o'zbek jadid adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazi o'zaro tipologik yaqinlik kasb etadi.[1]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Fenimor Kuper (1789–1851) – Amerika romantik adabiyotining asoschilaridan biri. Uning "Ko'koyoq" ("The Pathfinder"), "Oxirgi mohikan" ("The Last of the Mohicans"), "Ovchi" ("The Pioneers") kabi asarlarida hindular obrazi Amerika mustamlakachilik tarixining axloqiy muammolari bilan bog'lanadi. Kuper hindularni "vahshiy" emas, balki tabiat bilan uyg'un, halol, axloqiy

jihattan yuksak insonlar sifatida tasvirlaydi. Bu obrazlar orqali u sivilizatsiya nomi bilan amalga oshirilgan zo'rvonlikni fosh etadi, "tabiatdagi inson" g'oyasini ilgari suradi. Kuper ijodida hindular soddalik, adolat, vijdon va erkinlikning timsoli sifatida insoniyatga ma'naviy o'git beradi.[2]

Kuper asarlarida hindular – soddalik, tabiiylik, erkinlik va insoniy poklik timsoli sifatida gavdalanadi. Ular Yevropa mustamlakachilik siyosatining qurboni bo'lishiga qaramay, o'z vijdon va axloqiy qadriyatlariga sodiq qoluvchi obrazlar tarzida tasvirlanadi. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotida, xususan, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy singari jadid adiblar ijodida milliy ziyolilar – xalqni jaholatdan qutqarish, ma'rifat, ozodlik va milliy uyg'onish g'oyalari targ'ib etuvchi badiiy timsollardir. [1]

O'zbek adabiyotida esa XX asr boshlarida milliy ziyolilar obrazi yuzaga chiqadi. Bu davrda Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi tarkibida bo'lib, xalq siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan bosim ostida yashar edi. Shu davrda jadidlar – yangi avlod ziyolilari – xalqni ma'rifat, ilm va o'zlikni anglash orqali ozod etish g'oyasini ilgari surdilar. Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Avloniy singari adiblar o'z asarlarida ziyolilarni millatni uyg'otuvchi kuch sifatida tasvirladilar. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Omon obrazi orqali mustamlaka ruhiyatini ostidagi insonning ma'naviy iztirobi ochiladi. Fitratning "Hind sayyohi" asarida esa G'arb va Sharq tafakkuri o'rtasidagi qarama-qarshilik, millatni uyg'otish zarurati falsafiy asosda yoritiladi [3].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, har ikki adabiy hodisa – Kuper hindulari va o'zbek ziyolilari – o'z millati tarixida mustamlaka ongiga qarshi ma'naviy kurashning badiiy ifodasidir. Ikkalasi ham o'z xalqining ruhiy ozodligini, axloqiy pokligini va erkinligini himoya qiladi. Bu jihatdan ularni qiyosiy o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, madaniyatshunoslik va sotsiologiya uchun ham muhim ilmiy masaladir.

**Tadqiqotning maqsadi** – Fenimor Kuper asarlaridagi hindular timsoli bilan o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazini qiyosiy-tipologik tahlil etish, ularning tarixiy-madaniy va falsafiy asoslarini aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Kuper asarlarida hindular timsolining g'oyaviy mazmunini ochish;

O'zbek adabiyotida milliy ziyolilar obrazining tarixiy shakllanish jarayonini aniqlash;

Ikkala adabiy hodisa o'rtasidagi tipologik mushtaraklik va farqlarni ilmiy asosda izohlash;

Erkinlik, axloq, millat va insoniylik konsepsiyalarini falsafiy tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Kuper ijodidagi hindular timsoli ilk bor o'zbek adabiyotidagi ziyolilar obrazi bilan postkolonial va tipologik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Shu orqali Sharq va G'arb adabiy tafakkuri o'rtasidagi falsafiy mushtaraklik, insoniyatning ma'naviy uyg'onish bosqichlaridagi umumiy qadriyatlarini aniqlanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini E. Saidning "Orientalizm" nazariyasi, Frantz Fanonning postkolonial falsafasi, shuningdek, Fitrat, Avloniy, Cho'lponlarning ma'naviyat haqidagi qarashlari tashkil etadi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u qiyosiy adabiyotshunoslik, madaniyat falsafasi va milliy o'zlikni o'rganish bo'yicha yangi tadqiqotlarga nazariy asos bo'la oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy va falsafiy-analitik metodlar birgalikda qo'llanilgan. Har bir metodning qo'llanishi tadqiqot maqsadi — Fenimor Kuper asarlaridagi hindular timsoli bilan o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazini o'zaro qiyosiy tahlil etish — bilan bevosita bog'liq. Qiyosiy

adabiyotshunoslikda "tipologik o'xshashlik" tushunchasi turli milliy adabiyotlarda o'xshash tarixiy-iqtisodiy sharoit ta'sirida paydo bo'lgan g'oyaviy va badiiy hodisalarni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, Kuper asarlaridagi hindular timsoli va o'zbek adabiyotidagi ziyolilar obrazi bir-biridan geografik jihatdan uzoq bo'lsa ham, tarixiy va ma'naviy jihatdan o'xshash sharoitda — mustamlakachilik bosimi ostida shakllangan [4].

Kuperning hindulari Yevropa sivilizatsiyasining bosqinchilik siyosati qurboniga aylangan xalqni ifodalasa, o'zbek ziyolilari Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tizimi ostida millatni uyg'otish uchun kurashgan. Har ikkala obrazda ham inson sha'ni, erkinlik, adolat va ma'naviyat asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi. Shu bois bu tadqiqotda qiyosiy yondashuv orqali ikki adabiyot o'rtasidagi umumiylik va farqlarning falsafiy mohiyati ochib berildi[5].

Tarixiy-madaniy metod asarlarni yaratilgan davr ijtimoiy sharoiti, madaniy muhit va falsafiy tafakkur bilan bog'liq holda tahlil qilishni taqozo etadi. Kuper ijodi Amerika mustamlakachilik davrida shakllangan bo'lsa, o'zbek jadid adabiyoti Turkiston mustamlakachiligi sharoitida paydo bo'lgan. Bu ikki tarixiy kontekstda ham yozuvchilar xalqni uyg'otish, milliy iftixorni tiklash va adolatni himoya qilishni maqsad qilganlar. Tarixiy-madaniy yondashuv orqali biz bu adabiyotlarda milliy o'zlikni anglash jarayonining ichki harakat mexanizmini — ma'naviy uyg'onish, ozodlik va vijdon konsepsiyalarini — aniqlaymiz[6].

Falsafiy tahlil tadqiqotning asosiy konseptual tayanchidir. Bu yondashuv orqali asarlardagi inson, axloq, erkinlik va jamiyat haqidagi g'oyalar chuqur tahlil qilinadi. Kuper asarlarida erkinlik tabiiy holat — tabiat bilan uyg'un hayotning asosi sifatida talqin etiladi. O'zbek jadid adabiyotida esa erkinlik — ma'naviy-ma'rifiy uyg'onishning pirovard natijasi. Shu bois, falsafiy yondashuv yordamida erkinlik tushunchasining mazmuniy evolyutsiyasi, sivilizatsiyalararo mushtaraklik va tafovutlar ochib berildi.

Tadqiqotda E. Said, F. Fanon, Leslie Fiedler, R. Slotkin, shuningdek, Fitrat va Avloniyning asarlari nazariy manba sifatida foydalanildi. Bu ilmiy sintez maqolaning yangiligini belgilaydi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, Fenimor Kuper asarlarida hindular timsoli va o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazlari o'rtasida quyidagi asosiy o'xshashlik va farqlar aniqlandi. Tipologik o'xshashliklar. Ma'naviy erkinlik konsepsiyasi – har ikki adabiyotda inson erkinligi tashqi siyosiy holatdan ko'ra, ichki ruhiy holat sifatida talqin qilinadi. Axloqiy ideal – Kuper hindularini ham, o'zbek ziyolilarini ham yozuvchilar o'z xalqining vijdoni, poklik timsoli sifatida ko'rsatadi.

Mustamlakachilik tanqidi – har ikki yozuvchi mustamlaka mafkurasiga qarshi ma'naviy qarshilikni badiiy tilda ifoda etgan. Ma'rifat va uyg'onish – o'zbek ziyolilari ilm va ma'rifat orqali xalqni ozodlikka chaqirsa, Kuper hindulari tabiat va inson birligiga asoslangan qadriyatlarni himoya qiladi. Inson va jamiyat falsafasi – har ikki muhitda inson axloqiy yetuklik orqali jamiyatni o'zgartiruvchi kuch sifatida ko'rilgan. Asosiy farqlar. Sivilizatsion nuqtai nazar: Kuper G'arb jamiyatining o'z tarixiy xatolarini ko'rsatadi, o'zbek ziyolilari esa Sharq jamiyatining o'zini isloh etish zaruriyatini ilgari suradi. Qahramonning pozitsiyasi: Kuper hindulari ko'proq passiv falsafiy qahramon bo'lsa, o'zbek ziyolilari faol islohotchi, ma'rifatparvar sifatida tasvirlanadi. Falsafiy markaz: Kuperda "tabiatdagi inson" konsepsiyasi yetakchi bo'lsa, o'zbek adabiyotida "ma'naviyatdagi inson" konsepsiyasi ustuvor.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, turli sivilizatsiyalarga mansub bo'lishiga qaramay, Kuper hindulari va o'zbek ziyolilari insoniyat tarixining bir umumiy ruhiy bosqichini

ifodalaydi — bu bosqich axloqiy uyg'onish davridir. Ikkala adabiyot ham o'z millatining mustamlaka tazyiqiga qarshi ma'naviy javob bo'lgan.

Tadqiqotning eng muhim jihati — olingan natijalarni falsafiy, tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilish. Quyida bu natijalar asosida tahliliy xulosalar beriladi. Kuper falsafasida erkinlik va tabiat uyg'unligi

Kuper “Oxirgi mohikan” va “Ko'koyoq” asarlarida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni insonning asl erkinlik holati sifatida talqin etadi. Hindular tabiatning ajralmas qismi bo'lib, ularning hayoti vijdon, halollik va soddalik tamoyillariga asoslangan. Ular uchun ozodlik – bu tabiat qonunlariga sodiq qolishdir. Shu orqali yozuvchi G'arb sivilizatsiyasining texnik taraqqiyot bilan birga axloqiy inqirozga yuz tutganini ko'rsatadi [2].

O'zbek jadid adabiyotida ma'rifat va milliy uyg'onish

Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy kabi yozuvchilar milliy ziyolilar obrazida xalqni ma'naviy uyg'otuvchi kuchni ko'rsatdilar. Fitratning “Hind sayyohi” asarida G'arbning ilmiy tafakkuri va Sharqning ma'naviy qadriyatlarini o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasi ilgari suriladi. Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarida Omon obrazida millat o'tmishining og'rig'i va kelajak umidi mujassam. Qodiriy esa Otabek orqali zamonaviy ongli shaxsning xalq uchun kurash yo'lidagi fidoyiligini ko'rsatadi.

Bu obrazlar Kuperning hindulariga o'xshash tarzda — millatning vijdon ovoqidir. Ularning har biri o'z xalqining ma'naviy “oxirgi mohikani”, ya'ni yo'qolayotgan qadriyatlarini himoya qiluvchi timsollardir. [7]

Kuper va o'zbek jadid adabiyoti o'rtasidagi o'xshashlik insoniyatning umumiy tarixiy yo'lini aks ettiradi:

birinchi bosqich – tabiiy inson (Kuper hindulari),

ikkinchi bosqich – ma'naviy inson (o'zbek ziyolilari).

Birinchi tabiat bilan uyg'unlikda, ikkinchi ma'naviyat bilan uyg'unlikda erkinlikka erishadi. Shu jihatdan ularni ikki madaniyatning bir butun ma'naviy evolyutsiyasi sifatida qarash mumkin.

Munozara natijasida aniqlanadiki, Kuper ijodi va o'zbek jadid adabiyoti o'rtasidagi tipologik mushtaraklik faqat tarixiy emas, balki metafizik darajada ham mavjud: insoniyatni ezigulikka, adolat va vijdon mezonlariga qaytarish g'oyasi

ularni birlashtiradi. Fenimor Kuper asarlaridagi hindular timsoli va o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazi – ikki turli sivilizatsiya vakillarining badiiy tafakkurida bir umumiy g'oyani ifoda etadi: insonning o'zligini, axloqini va erkinligini himoya qilish zarurati. Kuper o'z asarlarida G'arb sivilizatsiyasi tomonidan yo'q qilinayotgan tabiat va mahalliy xalqlar qadriyatlarini himoya qilsa, o'zbek jadid adiblari milliy uyg'onish orqali xalqni jaholatdan, mustamlaka ruhidan ozod etishga chaqirgan.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki:

Kuper asarlaridagi hindular tabiat va inson uyg'unligi, o'zbek ziyolilari esa ma'naviyat va xalq uyg'unligi timsolidir.

Har ikkala adabiyotda ham axloqiy uyg'onish, erkinlik va vijdon tushunchalari markaziy falsafiy o'rin tutadi.

Kuperning qahramonlari tabiiy halollik va insoniy poklik timsoli bo'lsa, o'zbek ziyolilari ma'rifat, tafakkur va milliy ongning ramziga aylanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, Kuper hindulari va o'zbek jadid ziyolilari o'rtasidagi mushtaraklik insoniyat tarixining universal qonuniyatlarini ko'rsatadi. Har ikkisi “ma'naviy uyg'onish” bosqichini ifodalaydi – bu bosqichda inson o'z vijdoni, millati va tabiat bilan uyg'unlikni qayta anglaydi. Ularning o'xshashliklari va farqlari shuni tasdiqlaydiki, har qanday millat mustamlaka bosimi ostida o'zining axloqiy ildizlariga qaytish orqali ozodlikka intiladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, Fenimor Kuper asarlaridagi hindular timsoli ilk bor o'zbek adabiyotidagi milliy ziyolilar obrazi bilan qiyosiy-tipologik va postkolonial falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari xalqaro adabiyotshunoslikda ham yangi qarashlarni shakllantiradi, chunki u Sharq va G'arb tafakkuridagi inson konsepsiyasining o'zaro yaqinligini ilmiy asosda isbotlaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, Kuperning “Oxirgi mohikan”idagi Unkas obrazi bilan Cho'lponning Omoni, Fitratning Sayyohi va Qodiriyning Otabegi o'rtasidagi ruhiy mushtaraklik – axloq, vijdon va milliy o'zlikni himoya qilish falsafasida mujassamdir. Har bir adib o'z xalqining tarixiy xotirasini uyg'otgan, adabiyot orqali millatni o'zligiga qaytishga undagan. Bu jihatdan Kuper va jadid adiblar ijodi o'zaro mushtarak ma'naviy uyg'onish falsafasining ikki qit'adagi ifodasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Murodova D. N. Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazi poetikasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, O'zDJTU, 2025.
2. Murodova D. N. Fenimor Kuper romanlarida hindular obrazini tadqiq etuvchi maqolalar (dissertatsiya avtoreferatidagi “E'lon qilingan ishlar ro'yxati” bo'yicha).
3. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. “Jahon adabiyoti” fanidan ma'ruza matnlari va darsliklar (U. Hamdamov, A. Qosimov va boshqalar muallifligida).
5. Qo'shjonov, M. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1998.
6. Said Ahmad. Adabiyot va millat. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
7. Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): monografiya. – Toshkent: “Navro'z”, 2020. –
8. Xoliqova N. J. “Jadid adabiyotida ayollar timsoli” // Ilmiy maqola. –
9. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2002.
10. “O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” (B. Nazarov, A. Rasulov va boshq.). – Toshkent: darslik.